

Ona yurti - oltin beshig

# TONG yulduzi

N: 50  
(66487)

2004 yil  
13 dekabr - 19 dekabr

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

Poytaxtimizning Akmal  
Ikromov tumanidagi 197-  
maktabning 7- «YE» va 7- «D» sinf o'quvchilari «Tong yulduzi»


*Ustoz quvonchi*

## GAZETXON BOLALARIM



gazetasining kelgusi yilgi nashrlariga to'liq obuna bo'lishdi. Lola Vahobova, Murodjon Ortiqov, Malohat Yo'ldiyeva, Madina Hoshimova, Baxtiyor Saidov, Abdurashid Tursunov, Jasur Sultonov kabi ilg'or o'quvchilar ushbu gazeta bizning sirdoshimiz, sodiq do'stimizga aylangan, deyishadi mamnunlik bilan. Shogirdlarimning gazeta mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarini, bahs-munozaralarini, orzu-umidlarini ko'rib, boshim ko'kka yetadi.

Zaripa ABDUAZIMOVA,  
197-maktab o'qituvchisi.



Bugungi gazetxon - ertangi kutobxon

## SANOQ'INI SANAB OLING

2005 yil uchun obuna jarayoni ketayotgan shu kunlarda Sirdaryoda olib borilayotgan ishlar bilan qiziqdik. Viloyat Xalq Ta'limi bo'limi mudiri bilan qayta-qayta qo'ng'iroq qilib bog'lana olmogach, viloyatning «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining tashkiliy masalalar bo'yicha muovin Gulnoza Bektemirova bilan gaplashdik.

-Viloyatimizda 305 ta maktab bor. «Tong yulduzi» gazetasining kelgusi yilgi nashrlari uchun jami obuna ko'rsatkichi 496 ga yetdi, dedi opa go'yo hamma ish uddalanganidek mamnun. Axir har bir maktabga 10 donadan «Tong yulduzi» yetib borishiga imkon yaratilsa, obuna ko'rsatkichini oson bilib olish mumkin. Nega kattalar bu borada loqayd, o'quvchilar esa o'z tili va dilida so'zlaydigan respublikaning yagona nashri «Tong yulduzi»ga chinakam hamroh bo'lolmaydi? Bunaqada Sirdaryoda bugungi gazetxon, ertangi kitobxonlar kamayib ketadi-ku.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

## O'ZBEKISTON BOLAJONLARI

Istiqlolning g'unchalarisiz,  
Shirmoylari, kulchalarisiz.  
Yurtning sog'lom muchalarisiz,  
O'z elimning bolajonlari,  
O'zbeginning bolajonlari.

Ozodlik el armoni edi,  
Siznikidir shu chaman endi.  
Yayramoqning zamoni keldi,  
O'z elimning bolajonlari,  
O'zbeginning bolajonlari.

Har go'shasi jannat konidir,  
Bobolarning hur makonidir,  
Sizga nasib qilgan onidir,  
O'z elimning bolajonlari,  
O'zbeginning bolajonlari.

Qorako'zlar, qoraqoshlarim,  
Shunqorlarim, qaldirg'ochlarim,  
Chinorlarim, qayrag'ochlarim,  
O'z elimning bolajonlari,  
O'zbeginning bolajonlari.


Sulaymon SHODIYEV,  
Buxoro viloyati, Kogon shahri.

...Bugun ham seni bekatda intizor kutdim. Ko'zlarim yo'lingga nigoron. Soatga qarayman, daqiqalar asrga tatigudek...

Mashinalar g'iz-g'iz o'tavendi. Sendan esa hamon darak yo'q. Nima qilay? Sensiz axir darsga bora olmayman. Balki biroq o'tach, to'lib-toshib, men tomon shoshib kelasan? Oh, ana sen ko'rindim. Men tomon kelayotgan nahotki sen bo'lsang? Azbaroyi shoshilganingdan bir tomonga qiyshayib ham qolibsan. Qadrdonim 76-  
AVTOBUS!

## KUTISH

Haydovchi xunob, terlab-pishib ketgan odamlar, xira tortgan oynalardan bug' ko'tariladi. Bir amallab chiqib oldim. Har holda nafas olgudek. Tepadan igna tashlasang, yerga tushmaydi. Ertalabdan asab torlari tarang tortgan odamlarning yarmi bekatda qolib ketdi. Endi ular yana Seni KUTISHADI.



Dilfuza XOLMATOVA,

Q'zMUning jurnalistika fakulteti, 1-kurs talabasi.

## HUQUQIY BELLASHUV

Kuni kecha maktabimizda Konstitutsiyamizning 12 yilligiga bag'ishlangan bayram kechasini o'tkazdik. Ushbu tadbir ko'rik-tanlov ko'rinishida o'tkazilib, barcha 9-sinf o'quvchilari o'zaro bellashdilar. Ular musobaqa davomida tanishuv, savol-javob, erkin mavzu shartlarida o'z iqtidorlarini namoyish qildilar. Hay'at a'zolari bu iqtidorli o'quvchilarni huquqiy bilimlarini, turli mavzularda ishlagan devoriy gazetalarini baholashga biroz qiyaldilar. Sababi biri-biridan go'zal bu mavzularning hammasi ham tahsinga loyiq edi. Shunday bo'lsa-da g'olib va mag'lub o'quvchilar aniqlandi. 9- «D» sinfning - «Lochin» guruhi III-o'rinni, 9- «G» guruhi II-o'rinni hamda 9- «V» sinfning «Yosh huquqshunos» guruhi I-o'rinni qo'lga kiritishdi. G'oliblar «Maqto'v yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. Gulnoza ESHIMOVA, 29-arab tiliga ixtisoslashgan maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi.

## YANGI ZELLANDIYALIK KUTUBXONACHI

Faxr



Bizning O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti qoshidagi akademik litseyimiz 1996 yilda tashkil

topgan. Bugungi kunda bu ta'lim dargohida 888 nafar talaba o'zbek va rus guruhida tahsil olishadi. Ularga 76 nafar yetuk, malakali o'qituvchilar fan saboqlarini qunt bilan o'rgatishmoqda. Xorijiy tillarga

ixtisoslashtirilgan ta'lim maskanimiz o'quv xonalari, texnik laboratoriyalar, zamonaviy chet el vositalari va informatsion texnologiyalarga doir dastur va ko'rgazmalar bilan etarlicha ta'minlangan. Akademik litseyimizda kimyo, biologiya, fizika xonalari, kompyuter, videoglaz, multimediya va kodoskop bilan jihozlangan. Ikkita yirik kutubxona talabalar ixtiyorida. Birinchi kutubxonada rus va o'zbek tilidagi

kerakli qo'llanma va adabiyotlar, ikkinchi kutubxonada 10000 ga yaqin xorijiy adabiyot va darsliklar bor. Xorijiy kutubxonamiz direktori Yangi zellandiyalik Uolesh Mis Xelen Xonim haftaning har payshanba kuni biz bilan ochiq muloqot darsi olib boradi. Akademik litseyimizda sportga ham

Ustozlarimizning berayotgan sabog'idan barcha talabalar mamnun. Ayniqsa, tarix fanlari nomzodi Turg'un Toshpo'latov, O'rta maxsus ta'lim a'lochisi Matluba Mirtursunovalarning har bir darsini intilqik bilan kutamiz. Ta'lim maskanimiz rahbari

Gulchehra opa Boltaboyeva bizga ta'kidlaganidek, akademik litseyimizda tahsil olish uchun barcha sharoitlar mavjud. «Sizing vazifangiz puxta bilim olish va malakali mutahassis bo'lib yetishishdan iborat», - deydi. Biz

ustozlarimizning o'g'itlariga amal qilib, bilim sirlarini



e'tibor katta. Yaqinda talabalarimiz «Barkamol avlod» sport musobaqasida faxrli birinchi o'rinni egallashdi. Ta'lim dargohimizda xalqaro tashkilotlardan «Markaziy Osiyoga beg'araz yordam» fondi,

«Tinchlik korpusi» Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya va Amerika davlatlari elchixonalari hamda Britaniya konsulligi bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.



qunt bilan egallashga intilamiz. Shunday nufuzli ta'lim dargohida tahsil olayotganimizdan faxrlanamiz.

Go'zal QOSIMJONOVA,  
I-bosqich talabasi.

## BAXTLI ONLARIM



Ko'kka ko'z tikib turib,  
Yulduzlarni sanadim.  
Yurakdagi orzudan,  
Baxtga umid uladim.  
Shunda go'yo zamindan,  
Nigohim oyga tushdi.  
Hayajonda yonog'im,  
Go'yo pechakgul pushti.  
Yoshlik beg'ubor fast,  
Bog'larida bahor bor.  
Ulg'ayar unda ast,  
Sof niyatlari dilga yor.  
Xush baxtiyor onlarim,  
Ular qalvim gavhari,  
Hayot degan so'qmoqdan,  
Borgum umidlar sari.

Muxlisa ZOKIROVA,

M.S.Tursunxo'jayeva nomli tibbiyot kollejining III-bosqich talabasi.

## MUNOSIB NISHONLADIK

Kuni kecha bizning Toshkent tumanidagi 2- sonli maktabimizda Konstitutsiya bayramiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda barcha sinflar qatori bizning 10- «A» sinf o'quvchilari ham o'zlari tayyorlagan «Baxtimiz qomusi» mavzusidagi ko'rinishlari bilan faol ishtirok etishdi. Tadbirda yangragan qo'shiqlar, raqslar, she'rlar hamda



sahna ko'rinishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Konstitutsiya bayrami munosabati bilan qomusimiz to'g'risidagi bilimlarimiz yanada boyidi.

Gulnoza MUHAMMEDOVA, o'quvchi.



Inson dunyoga kelgach, otanasini, yaqinlarini, tevarak-atrof, ranglar jilosini ko'zlari orqali ko'rib, mushohada qiladi, fikr yuritadi, o'qiydi, o'rganadi. Lekin hayotda nimalar bo'lmaydi, deysiz. Ba'zan soppa-sog' ko'zlarimizni biror ehtiyotsizlik, tasodiflar, baxtsiz hodisalar tufayli shikastlab olishimiz

kasb mahoratlari orqali e'tibor topganlar. Husniddin aka bemorlarni ko'zdan kechirib, ularga turli maslahatlar



## KO'ZLARINGIZNING NURI BO'LAY

mumkin. Hozir ko'pgina bolalarning qarsildoqlar sotib olib, uni o'yin qilish natijasida ko'zlariga, tanalariga shikast yetayotgani hech kimga sir emas. Hayriyatki, baxtimizga jonkuyar shifokorlar doimo yordamga tayyor turishadi. Ana shunday shifokorlardan biri Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi ko'z kasalliklari shifokori Husniddin aka Tursunovdir. Ular kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lib,

va tavsiyalar berib, ko'ngillarini ko'tarishga, qalblarida sog'ayib ketishga umid bog'lashlariga harakat qiladilar. Ko'pchilik bemorlar yana avvalgiday ishga, hayotga, o'qishga qaytishgan. Ular Husniddin akadan bir umr minnatdorlar. Biz ham Husniddin akadan sertashvish va mas'uliyatli ishlarida omad tilab, sog'lik-salamatlik tilaymiz. Barchaga ko'z nurlari ulashishdan aslo charchamang, deb qolamiz.

Venera TURDIYEVA,


Parkent tumani, Zarkent qishlog'idagi 15-maktabning 10-sinf o'quvchisi.

## SIZ TEATRGGA BORASIZMI?

Ota-onang bilan birgalikda teatr tomoshalariga borishning gashti o'zgacha bo'ladi. Bizning oilamizda bu doimiy an'anaga aylangan. Yaqinda hammamiz birgalikda Qo'g'irchoq teatriga bordik. Qo'g'irchoqlarning aktyorlar yordamida farg'onacha, xorazmcha raqs tushishlari hammani lol qoldirdi. Ayniqsa, mohir san'atkorlarimizning qiyofasi aks ettirilib, ularning qo'shiqlari ijro etilgan shou-konsert menda katta qiziqish uyg'otdi. Ertasiga maktabga borib, dugonalarim Durдона, Nigoralardan sizlar ham teatr tomoshalariga borasizlarmi, deb so'radim, ular yo'q deb javob berishdi. Mening dadam kechagina bizni Qo'g'irchoq teatri tomoshasiga olib bordi, deganimda, dugonalarimning nigohida havas tuyg'ularini sezdim. To'g'ri, ba'zi oilalar farzandlarini bayramlarda onda-sonda istirohat bog'lariga olib borishadi. Ammo teatrlarga emas. Bolani 3 yoshidan boshlab, qo'g'irchoq teatrlari tomoshalariga olib borilsa, unda asta-sekin ko'nikma hosil bo'ladi. Sahnada qo'yiladigan spektakl uchun vaqt antrakti bilan 1 soat yoki 45 daqiqadir. An'anani teatr dargohidan boshlaganda, bolalarning ongi oshadi, ma'naviy saviyasi yuqori bo'ladi. U ulg'ayishiga qarab kino, konsertlarga borishni odat qiladi. Eng muhimi, ota-onalar bolalarining madaniy hordiq chiqarishlariga e'tibor bersalar, ayni muddao bo'lardi.

INOYATXON,

Poytaxtimizdagi 162-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi.



Aziz o'quvchilar! Gazetaning avvalgi sonlarida Farg'ona viloyati, Rishton tumanidagi 32-maktab, 5-sinf o'quvchilarining «Do'stlik masofa bilmas» rukni orqali e'lon qilingan maqolalarini o'qib chiqqan bo'lsangiz kerak. Tahririyatimizga Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi Qori Niyoziy nomli 25-maktabning 6-sinf o'quvchilari va ularning ustozlaridan kelgan maktublar ham aynan shu ruknga taalluqli ekan. Tengdoshlaringiz farg'onalik do'stlariga javoban, qolaversa, «Tong yulduzi»ning doimiy muxlislari e'tiboriga o'z ijodlarini gazeta orqali havola etishimizni iltimos qilibdilar.

Gazetamizning qashqadaryolik aziz mushtariylari! Adabiyotga bo'lgan ishtiyoqingiz maktublaringizda o'z aksini topgan. O'ylaymizki, ijodingizdan gazeta orqali barcha tengdoshlaringiz bahramand bo'ladilar. Ular ham o'z fikr-mulohazalarini, she'r-u hikoyalari sevimli gazetalarining «Do'stlik masofa bilmas» rukniga yuborishni unutmaydilar.



# FARG'ONALIK DO'STLARIMIZGA HAVAS

## «KAZINA»NI O'RGANING

O'zbekiston mustaqil davlat bo'lgandan so'ng turli maskan, tashkilot, o'quv muassasalari va shunga o'xshash boshqa joylarda ishlar tubdan o'zgardi. Vaqt shunday shiddat bilan o'tmoqdaki, bu yil qilingan yangilik o'rnini boshqa yaratuvchanlik egallamoqda. Yoshlarimiz chet ellarda tahsil olmoqdalar. Ammo bu hali kam. Men barcha Respublikamiz yoshlarini mustahkam, chuqur bilim olishga chorlayman.

*Ustoz chorlovi*

Chet tilini mukammal egallang, yosh avlod! Agar qaysi bir chet tilini mukammal bilsangiz, Siz bemalol o'sha xalq farzandlari bilan turli sohada bahslasha va tenglasha olasiz. Dunyoqarashingiz o'sadi. Axir aytadilar-ku, «Til bilgan - el biladi», deb. Ajdodlarimiz qoldirgan merosni o'rganing. Yillar o'tib, Siz ham ulg'ayasiz. Kelajak Sizlarning qo'lingizda. Ilm esa xazinadir. Ushbu xazinaga avvalo o'zingiz ega bo'lib, keyin uni kelajak avlodga ham yetkazing. Bu yo'lda Sizlarga metin iroda, sabr-bardosh tilayman.

*Zubayda SAIDOVA,  
olmon tili o'qituvchisi.*



## MAQTANCHOQ TERAK

Qadimda bir bog'bon boboning go'zal bir bog'i bo'lgan ekan. Ushbu bog'da: olma, o'rik, gilos, olcha, behi, anor, yong'och va boshqa mevali daraxtlar o'sar ekan. O'rik daraxtining yonginasida bir Terak bo'lib, bir kuni u do'stlariga: -Men hammangizdan zo'rman. Hammangizdan bo'yim ham baland. Qani, ayting-chi, kimning bo'yi menikidan baland? -deya xaxolab kulib yuboribdi.

Bu gapni eshitgan boshqa daraxtlar xafa bo'lib qolishibdi. Ertasi kuni hammayoqni changitib, shamol ko'tarilibdi. Shamol kuchaygandan-kuchayaveribdi. Shunda hamma daraxtdan ham bo'yi baland Terak qars etib ikkiga bo'linib, O'rikning tagiga tushibdi. O'rik esa unga:

-Hech qachon maqtanmaslik kerak. Maqtanchoqning holi voy,-debdi.

Ko'rinib turibdiki, maqtanchoqlik yaxshi emas ekan. Maqtanchoq Terak o'z do'stlari oldida uyalib qolibdi. Shunday ekan, biz ham maqtanchoqlik kabi illatlardan yiroqda bo'lsak yomon bo'lmaydi.


*Munisa RO'ZIYEVA.*

## TADBIRLAR NIMA UCHUN KERAK?

Kuz faslining oxirgi kunlarida maktabimizning 6-«A» sinf o'quvchilari Mehrjon - hosil bayramini nishonlashdi. Bayramda Dehqon boboning meva-sabzavotlar bilan dildan qilingan suhbat barchaga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi. Bayram juda yaxshiy yakunlandi.

Biz sinfimiz o'quvchilari shunday xulosaga keldik: Darslarda olingan bilim o'tkaziladigan ana shunday tadbirlarda, savol-javoblarda mustahkamlanar ekan. Shuning uchun olgan bilimingizni turli tadbirlarda charxlab boring. Shunda kayfiyatingiz ham doimo a'lo bo'ladi.

*Hurriyat JO'RAYEVA.*



## SEN BILAN XAYRLASHMAYMIZ!

Fikrimni bayon etishdan avval, bir rivoyatni keltirib o'tishni lozim topdim.

Oллоh Yer yuzining gultoji bo'lmish insoniyatni yaratayotganida, uning qalbiga MEHR va MURUVVAT tuyg'ularini ham solgan ekan. Odam Atoning dastlabki avlodlari nafaqat bir-birlariga, balki o'simliklar va hayvonot dunyosiga mehribon edilar. Ona zaminning barcha nozne'matlarini, parranda-yu darrandalari bilan birga baham ko'rar ekanlar. Zamin-u zamon tinch va osoyishta davom etar ekan. Ammo bir kuni o'sha osoyishtalikka putur yetibdi. Bir-birlariga mehribon bo'lgan odamlarni ko'rolmagan shayton ularning orasiga nifoq solmoqchi bo'libdi. Shayton Momo Havoning oldiga kelib: «Bolamga qarab turing»,

deb unga bolasini tashlabdi va o'zi chetroqqa borib berkinib turibdi. Odamlar shayton bolasini o'ldirib, ko'mib qo'yishibdi. Shayton kelib, «Bolam»lab chaqira boshlabdi. Yerga ko'milgan bola asl holiga kelib, ko'milgan joyidan chiqib kelibdi.

Bir kuni u yana Momo Havodan iltimos qilib, bolasini unga tashlab ketibdi. Odam Ato bilan Momo Havo shayton bolasidan butunlay qutulish uchun uni qovurib yeyishibdi. Shunda panada poylab turgan shayton ularning oldiga kelib qahqaha o'tib kulibdi va debdi: «Men o'z zimmim maqsadimga yetdim. Maqsadim - odamzodning ichiga kirish va uni

o'z yo'limga solish edi. Bundan keyin sizlarning avlodlaringiz qalbida shaytoniy his-tuyg'ular ham yashaydi», degan ekan.

Aziz tengdoshlar! Bu rivoyatni keltirishimdan maqsad, 2004 yil «Mehr va muruvvat yili» deb e'lon qilinganidan barchamiz xursand bo'lgan edik. Endi esa yil tugab, 2005 yilni qarshilashga oshiqmoqdami. Istardimki, 2004 yil bilan xayrlashayotib, biz uchun aziz bo'lgan Mehr va Muruvvat tuyg'ulari bilan xayrlashmasak. Bu tuyg'ular doimiy hamrohimiz bo'lsin! Qalbmizdagi bir-birimizga bo'lgan mehrimiz hech qachon so'ymas!

*Abbos NAZAROV.*

*GULYUZ tayyorladi.*



Tengdoshim, agar e'tibor bergan bo'lsangiz, o'zbek oilalarida qiz bolaga nisbatan alohida munosabatda bo'ladilar.

### Umidalar yozadi

sochlarini esa tarab, ularning parvarishiga e'tibor qaratishi lozim. Kir kiyimlarni kiyish, sochni

anglatadi. U odam organizmini va faoliyatini tashqi muhit bilan bog'laydi. Tashqi muhit deganda o'zimiz yashaydigan xona, uy-joy, atrof-muhit, yer, suv, havo,

## O'SMIR QIZLAR GIGIYENASI

Sababini hech o'ylab ko'rganmisiz? Keling, bunga birgalikda javob topamiz. Qiz bola o'zining betakror husn-u jamoli, yoqimli ovozi, mayin tabassumi, nozik tabiati, og'ir - vazminligi, muloyim xatti-harakatlari va pokizaligi bilan ajraladi. Qiz bola yuqoridagi fazilatlarining egasi bo'lish bilan birga kelajakda bir oilaning bekasi, mehribon ona hamdir. Demak, u ertangi kunning davomchisi, kelajak avlodning bunyodkori sanaladi. Qizlarimiz o'z navbatida shaxsiy gigiyenaga rioya etishi shart. Badanni toza tutishi, kiyimlarini ozoda saqlashi,

qo'llarini parvarishlab, timoqlarini doimo olib yurishi,

taramaslik, tirnoqlarni o'stirib yurish, tor kiyimlarni kiyish va eng yomoni qiz boladan yoqimsiz hid kelishi ma'daniyatsizlikdan darak beradi.

Tengdoshim, shuni unutmangki, qizlar agar o'z uyida kir-chir yurishga odatlanib qolgan bo'lsa, ular yashaydigan xonadonda ozodalikka rioya qilinmasa, ular keyinchalik ham tozalikka rioya etmaydilar. Qizlarjon, Siz bunga aslo yo'l qo'ymang! Chunki ozodalik kishining ruhini ko'taradi, dilini quvontiradi, mehnat qobiliyatini oshiradi va eng asosiysi turli xil kasalliklardan saqlaydi.

### SOG'LOM TURMUSH MADANIYATI

Inson uzoq umr ko'rishni va sog'lom bo'lishni istar ekan, buning uchun u bir qator gigiyenik talablarga javob berishi kerak bo'ladi. Bunga inson yoshligidanoq ko'nikma hosil qilishi lozim.

GIGIYENA - yunoncha SOG'LOM degan ma'noni

oziq-ovqat va shu kabilar tushuniladi. Biz yashaydigan xonalar yorug', quyosh nuri tushadigan, ozoda va shinam bo'lishi zarur. Xonalarni vaqti-vaqti bilan shamollatib turish va turli xil gullarni uy sharoitida o'stirish esa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, quyidagilarni kun tartibimizga kiritib



qo'ysak ham ma'nau, ham jismonan sog'lom turmush tarziga ega bo'lamiz. Jumladan:

Ertalabki badan tarbiya, yuz qo'llarni yuvish, tishlarimizni tozalash, dush qabul qilish, ichki kiyimlarni tez-tez almashtirib turish, badan tozaligini saqlash bilan birga, kiyim-bosh, poyafzal, o'ringo'rpa va xonalarimizning ozodaligini saqlash.

Sog'lom turmush tarziga ega bo'lay desangiz, aziz tengdoshim, yuqoridagilarga amal qiling!


Umida RUSTAMOVA,  
P.F.Borovskiy nomli tibbiyot kollejining II-bosqich talabasi.



## OLOV OYINCHOQ EMAS...

Dunyoda turli-tuman kasblar bor. Har birining o'ziga xos mashaqqatlari, gashti ham bor. Ammo shunday bir soha borki, insonlarning xavfsizligini ta'minlashda, yong'in bilan bog'liq xavf-xatarni oldini olishda muhim ahamiyatga egadir. Bu yong'in xavfsizligi xizmatidir.

... Olov bilan yuzma-yuz kelish, zarur bo'lganda jon fido qilish ayitishgagina oson. Har-xil noqulay va murakkab sharoitlarda xo'luruqni yamlamay yutayotgan o't bilan olishish qanchalik mardlik, jasorat va chapdastlik talab qilishini hamma ham bilavermasa kerak. Bu sharaffli kasb egalarining, shuningdek, respublikamiz miqiyosida 10 noyabrdan 10 dekabrgacha o'tkazilgan Yong'in xavfsizligi oyligining maqsadi yagona - turli sabablar oqibatida yuzaga keluvchi tilsiz yov bilan kurashish, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, ogohlik va hushyorlikni oshirishdan iborat. Ayrim fuqarolarning



Bir ayol bolalarining ustida eshikni qulflab do'konga nonga chiqib ketadi. Qarovsiz qolgan bolalar oshxonaga o'tib yonib turgan gaz plitasi bilan o'ynashgani bois uyning ichini quyuq tutun qoplaydi. Bundan vahimaga tushgan to'rt yoshli Saidxo'ja 2

yoshli singlisi Nodira va chaqaloq singlisi Zilolani ko'tarib u yoqdan bu yoqqa yugura boshlaydi. Oradan 15 daqiqa o'tar-o'tmas o't o'chiruvchilar etib kelishadi. Yuqori qavatga ko'tarilgan o't o'chiruvchilar olov ichidan birin-ketin bolalarni olib chiqib, qo'lma-qo'l qilib pastga uzatishadi. Afsuski zudlik bilan yetib kelgan tez tibbiy yordam xodimlarining sa'yiharakatlari zoye ketdi: bolakaylarning hayotini saqlab qolisholmadi.

Men bu ayanchli voqeani bejiz so'zlaganim yo'q. Bu hikoyam ayrim onaxonlarimizga, o'g'il-qizlarimizga saboq bo'lishini istardim. Zero, «tilsiz yov» deb nom olgan olov fasl, vaqt yoyinki joy tanlamaydi. Kutilmaganda ozgina ehtiyotsizlik, beparvolik oqibatida ro'y beradi. So'nggi pushaymon esa, o'zimizga dushman ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Yong'in xavfsizligi qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilsangiz davlat va shaxsiy mulkingizni, uy-joyingizni yong'indan asragan, shuningdek, yaqinlaringiz va farzandlaringiz xavfsizligini ta'minlagan bo'lasiz.

Aziz YO'LDOSHEV,  
Yong'in xavfsizligi bo'limi birinchi XYOX alohida post boshlig'i, katta leytenant

## ASKAR AKAMGA MAKTUB

Xizmatlarda yurgan akajon,  
Singlingizdan ko'pdan-ko'p salom.  
Xuribsizmi hormay-tolmayin,  
Yot unurni hech yo'latmayin.

Sizlar borki, biz tinch yuribmiz,  
Funlarimiz, kunlar xotirjam.  
Orzular-la uyg'oq dilimiz,  
Shu tinchlik-la bo'lsin mujassam.

O'qishlardan yana tashqari  
To'qishni ham o'rganib oldim.  
Qo'lqop, paypoq deganday yana,  
Nimchani ham bitirib qoldim.

Atay sizga tayyorlab qo'ydim,  
Kiyasiz-a, kelganingizda?  
Oyimga ham ko'rsatib u kun,  
Tasvirladim xo'p eningizda.

Javobingiz kutib qolamiz,  
Qo'ni-qo'shni, qarindosh - urug',  
Xurt qo'rg'oni, qatqonsiz aka,  
Sizlar borki, bag'rimiz to'lug'...

Umida HAMIDOVA,  
Shayxontohur tumanidagi S.Ismatov nomli  
141-maktabning 7-sinf o'quvchisi.



## O'N IKKI O'G'LOM

Xovlar qasd ayladi yovuz niyat-la,  
Xurtim o'g'lontari kurashar mudom.  
Zafarga erishar zo'r shijoat-la,  
Siz shohid bo'ldingiz o'n ikki o'g'lon.

O'n ikki akajon, siz doim yodda,  
Mard, jasur edingiz, doimo sodda.  
Xurtim tinchligini saqlagan tobda,  
Siz shahid bo'ldingiz o'n ikki o'g'lon.


Siz misoli ko'kda o'n ikki yulduz,  
Nomingiz dillarda, yo'qolmas izziz.  
O'zbekning qahramon o'g'lontarisiz,  
Siz shahid bo'ldingiz, o'n ikki o'g'lon.

Umida MASHARIPOVA,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
82-maktabning II-«B» sinf o'quvchisi.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

-Oz-moz anglyadurmen, janob, ammo siz aytgan baytning ma'nosi men anglaganimdan-da, chuqurroq bo'lsa kerak, deb o'ylaydurmen.

-Borakalloh, tiyrak va ziyrak ko'rinasan,-dedi hamsuhbati tiqilinchda hali u oyog'ini, hali bu oyog'ini o'nlab. -Falakning gardishi qursin! Bu g'arib dehqonlarning hech ayblari yo'q, ha, sira aybi yo'q, butun balo beklarda. Chorikorlar kesakni kemirur desam, yolg'oni yo'q. Qo'zg'olon ko'tarmay ne qilsun? Yigit va qizning voqeasi g'oyat faje'. Bular- olamda misli yo'q, pok, asl guldek nafis zotlar. Bular - Xirotda boshlariga tushgan ofatdan qochib, qishloqda yurganlar. Kambag'allarga yordam berib, yigit shikoyatnoma, arizalar yozgan. Mana ko'ribsizki, endi ikkovlari ham dor ostida. Podshoh hazratlari farmonga imzo



chekkanlar, a'lam hazratlari esa bu g'ariblarni ajal qo'liga topshirishga fatvo berganlar. Sho'rliklar begunohliklarini kimga aytinlar?! Bor- yetti pushtini qo'llar, yo'q o'zini ham qo'llay olmas, deganlar. Yo rabbim, haqiqat gavhardirki, bir kuni oshkor bo'lur!..

Alisher hayratda, eshitganlarini o'zicha anglashga urinurdi, madrasa talabasi sukut qilgach, u sekin gapirdi:

-Taqsir, to'g'ri aytursiz, tushundim. Odamlarga razm solsam ko'pchilik ularni qizg'anadur, yig'laydur. O'lim dahshati yomon-da, qarang, mahkum etilganlarning ranglari o'chgan, go'yo soyaga o'xshaydurlar. Qiz-u yigitning alam-hasrati ichlarida. Goho ular o'zaro shivirlashib qo'yurlar. Ko'rursizmi? Alarning holiga ahli shahar yig'lashur!..-Alisherning ko'z-yoshlari tag'in quyila boshlagan edi.

Maydonda nogahon mudhish sukut cho'kdi. Jallodlar dehqonlarning boshlariga ajal qopchiqlarini bir-bir kiydirib, dor boshiga keltirdilar va oldinma-ketin ularni dorga tortib yubordilar. Tikandek qattiq ko'zli, yuzlari toshdek yovuz jallodlar, go'yo bajarmish qabohatliklaridan mamnun bo'lgan kabi mag'rurona jim qotdilar, dehqonlar esa o'lim panjasida

## ALISHERNING YOSHLIGI

bo'g'ila-bo'g'ila tipirchilab, qattiq azob chekib, asta-sekin jim bo'ldilar. Jallodlar yigit va qizning qo'llarini yanada qattiqroq bog'ladilar. «Alvido azizim!» dedi yigit g'urur ila. «Sen ila birga ketmoqdamen, buni baxt bilurmen. Guldek sofimiz!..» deya javob berdi shivirlab qiz. Alamdan qorayib ketgan yigit dahshatli hayajondanmi yoki o'lim oldi talvasasidanmi, kuch bilan kuldi. «Jonim, azizim, zulm dunyosidin qutulurmiz, garchi...» Ammo yigitning so'zlari uzildi...

Bu payt maydondagi sukunatdan ortiqroq dahshat yo'q edi. Alisher bo'zdek oqargan, qattiq titroqda, o'qdek otilib olomon orasidan chiqib ketdi. Orqasiga qarashga yuragi dov bermas, to'xtamay chopar edi.

\*\*\*

Havo salqinroq, ora-sira yomg'ir tomchilab turibdi. Taxtasi qo'ltig'ida, Alisher eshikdan kirib keldi.

-Qayerlarda yuribsan? -deya so'radi oshxonadan chiqib kelayotgan onasi tashvishlanib.

-Ona, ona, -tutulinqirab, o'pkasini bosolmay, ko'zlari ola-kula holda dedi Alisher, -Chorsuga bormishdim, maydonda xaloyiq g'uj. Dehqonlarni osishdi... O'zim ko'rdim...

Onasining g'azabi toshib, alam bilan so'zlay ketdi:

-Aytmishdim-ku, zinhor-zinhor uzoqlarga borma deb, Alijon! To'g'ri yur, pok bo'l, jonim, ko'nglingga bir jarohat tushmasligini, bir zarra chang qo'nmasligini tangrimdan tilaymen.

Ona o'g'lini quchoqlab yuzlarini mehr bilan siladi.

-Yuragim qinidan chiqib ketay dedi, qochib ketdim. Onajon, afv eting, endi aslo bormaydurmen u maydonga.

-Xafa bo'lma, yuvingilda, taomga o'ltir.

Alisher taxtani tokchaga qo'yarkan, oshxonaga ketayotgan onasiga dedi:

-Taom emaymen, ko'nglim behuzur...

\*\*\*

Kuz... To'kilgan yaproqlardan yerlarda gilam. Tiniq osmonda quyosh yarqirab tursa-da, kuzning o'tkir izg'irin yuz va qo'llarni yalab, achitadi.

Keng xonaqohda qat-qat bo'yralar ustiga qalin yangi namat, to'rda esa xiylagina tutilgan cron gilami to'shalgan. Darichalarga yopishtirilgan moyli qog'ozlar osha kirgan quyosh nuri xonada hokimlik qilolmas, uy nimqorong'i edi. Bu shahzodalar va beklarga xos maktab. Alisher shular qatorida darichaga yaqin tiz cho'kkan, maktabdoshlarining domulla bexabar sho'xliklariga, shivir-shivirlariga quloq solmas, darsining zeru zabari uni butunlay band qilgan edi. Yonida o'ltirgan shahzoda Husayn goho turtib qo'yar, shunda Alisher bir cho'chib tushar va yana mutolaaga kirishib ketar edi.

Shogirdlarining o'zaro shivirlashlari domullaga yetmas, onda-sonda shovqin ko'tarilgundek bo'lsa, domulla gunohkorga bir tayoq tushirar va sho'xlik shu on tinar edi. Lekin dars shovqini ham yetib ortardi. Birov qur'onni, birov haftiyakni, birov

alifbeni, birov arabiy diniy kitoblarni qiroat ila, birov forsiy g'azallarni ohang bilan o'qirdi.

Boshiga qozondek salla qo'ndirgan, qat-qat to'nlariga o'ralib olgan domulla vazminlik va salobat ila o'ltirganacha shogirdlardan biriga saboq berardi. Ba'zan bek yo shahzodalardan birortasi hurmat yuzasidan kirib kelar va ta'zim ila so'zlashib, picha suhbatlashib chiqib ketishar edi.

Shogird shahzodalar ruhlariga beshikdayoq singgan g'ururlarini maktabda ham tark eta olmas, saboqlarining nuqtasiga yetar-yetmas darhol shivir-shivirga o'tishar edi. Bularning gapi-o'q uzish, ot chopish, qilich solish, sovut-qalqon, kelajakda kim qayerga hokim... Xullas, bir qarichligidanoq taxt mojarosi...

Alisher qur'onning mag'zini chaqishga kirishardi. Forsiyni yaxshi bilardi, lekin arab tilini o'rganishga endi kirishgan. Turkiy esa ona tili; turkiy baytlarni zo'r maroq ila o'qir, kundankunga yoddan biladigan g'azallari ko'payib borur edi. Maqollar, masallar, ertaklarni o'bdon sevardi.

To'satdan ko'chada shovqin ko'tarildi, eshikda bo'zdek oqargan

### GO'ZALLIKNING MADHIN YOYIB KUY QILAMIZ

*Atirgulim, bo'ylaringni  
To'yib hidlay.  
Vanog'ingga boshginamni,  
Qo'yib hidlay.  
Yuragimning to'ridan sen  
Joy olding-ku,  
Barcha gullar orasida  
Suyib hidlay.  
Dunyolarni tutib ketsin,  
Ifortaring.  
Yomg'ir suvi yuvib kelsin,  
G'uborlaring.  
Bu olamni jamolingga,  
Masfun etsin,  
Sen ochilgan o'sha tong-u  
Bahortaring.  
Qirmiz yuzing ko'rib ko'ngil  
Yashnab ketar.  
Xayollarni go'zalikka  
Boshtab ketar.  
O'zi shoir, o'zi rassom  
Gul tabiat,  
Nozik dilni o'z husniga  
Masfun etar.  
Go'zallikning madhin yoyib,  
Kuy qilamiz.  
Iforing-la olamni  
Xushbo'y qilamiz...  
Atirgulim bo'ylaringni  
Taratib tur,  
Bir kun kelib gulzoringda  
To'y qilamiz.*

**Dilfuza MAHKAMOVA,**  
Jizzax shahar Yoshlar ijodiyoti  
markaziga qarashli  
«Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi.

so'fi paydo bo'ldi. U qoqila-surila domulla oldiga yetgan hamon, uning qulog'iga engashib

OYBEK

shivirladi. So'zi so'ziga qovushmas, qattiq sarosimada edi.

-Barcha saroy beklari, barcha kanizlar qora motam liboslariga burkanib olganmishlar... Ulug'bek Mirzo kelar emishlar...-degan so'zlarni arang aytib tugatdi.

-Ey, shohi oliy og'ir hasta edilar, -dedi domulla qaltiragan qo'llarini ochib qur'on o'qidi.

Jim qotgan shahzoda Husayn va barcha shahzodalar domullaga ergashib qo'llarini yuzlariga surgan hamon, darhol duv ko'tarildilar. Bir onda xonaqoh bo'shab qoldi. Maktab saroyga yaqin esa-da, shahzodalar ot ustiga sakrab, o'sha tomon chopdilar.

Alisher xomush, jim o'ltirardi. Unga o'xshash yana bir necha bek zodalar domulla: «Ozod!» degandagina o'rinaridan qo'zg'aldilar. Alisher kitobni jildiga solib, bo'yniga osdi va keng to'nlarining etaklariga o'ralashib o'rnidan turolmay talvasalayotgan domullasining qo'ltig'iga kirib yordamlashdi-da, chuqur ta'zim ado etgach, ko'chaga yugurdi.

\*\*\*

Katta maydon gavjum. Barchaning qovog'i soliq. Bu yerda bo'zchilar, kosiblar, juldur bo'z yaktakli bechoralar ko'pedi. Xalq og'zida gap, shivir-shivir bir on tinmas edi:

-Podshoh hazratlari jabhada vafot etmishlar!..

-Boysunur Mirzoning kichik farzandi, ya'ni nabirasi sulton Muhammad Mirzo bilan jangda g'alaba qozonib qaytar ekanlar, jabhada halok bo'lmishlar.

-Subhidamda qasrga keltirmishlar.

-Keksayib vafot etdilar, padari buzurgvorlari Temurdan ham ortiq yashadilar.

-Otalari o'ldi, lekin dafndan ilgari shahzodalar, sultonlar orasida taxt janjali ko'tarildi.

-Ulug'bek Mirzo lashkar tortib Samarqanddin kelurmishlar...

Ana shu kabi so'zlar eshitilur edi.

To'da-to'da olimlar, shoirlar ham shu yerda. Mana Jomiy, ulug'vor turibdi. Boshida katta salla, mullayoqa olacha ko'ylak ustidan malla to'n kiygan, qo'llari orqada, og'ir sukutda. «Shohruh o'ldi, Temurbek saltanati shu bilan tamom bo'lsa kerak. Shahzodalar, beklar yana g'avg'oni boshlaydilar, qonli janglar bir-biriga ulanib ketaveradi. Shohruh hazratlari qabrga kirmay janjal quyuni ko'tarildi. Qani insof, qani haqiqat?.. Barcha inson tuproqqa kiradi, bevafo dunyo, puch dunyo!...» deya o'ylardi Jomiy. Yonidagi do'stining yelkasidan quchib, chetga tortdi va ohista tovush ila hozirgina tug'ilgan yangi she'rni o'qiy boshladi. Beklar, amaldorlar, qozilar, shayxlar orasida shivir-shivir ko'paygan. Har birining ko'nglida o'zicha taxtga mo'ljallangan nomzod shahzodasi bor.

Gavharshodbeginning makri ham avjida edi.

(Davomi bor.)

# QOR EMAS OPPOQ, PAR EMAS YUMSHOQ

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

G'oz'a nima uchun ekiladi? Albatta uning hosili bo'lgan paxtasi uchun. Odamlar undan o'zlariga zarur turli-tuman mahsulotlar tayyorlaydilar. Hunarmand to'quvchilar paxtani yigirib, har xil matolar to'qiydilar. Ma'lum bo'lishicha, eng qadimiy gazlama Hindistonning besh ming yillik Maxendmo-Doro shahri qazilmasidan topilgan. Hind gazlamalari nafisligi, gullarining chiroyilligi bilan shuhrat taratgan. Iskandar Zulqarnayn paxta chigitini Yevropaga birinchi bo'lib olib keladi. Hind gazlamalaridan, parda, choyshab tayyorlash uchun foydalaniladi. Bizning yurtimizda ham to'quvchilik kasbi bilan odamlar qadimdan shug'ullanib kelishgan. Samarqand, Buxoro to'quvchilarining

gazlamalariga talab juda katta bo'lgan. Iplar, ip gazlamalar, paxta yog'i olis mamlakatlarga sotilgan. Savdogarlar Fors, Iroq, Hindiston, Arab xalifalariga, Xorazm orqali esa Volga bo'yi shaharlariga, Yevropa davlatlariga yetkazib berganlar.

... Bolalar! Dunyo mamlakatlarida har yili turli xil sun'iy tolalar yaratiladi. Biroq, ularning hech biri paxta tolasiga tenglasha olmaydi. Chunki paxtadan tayyorlangan barcha gazlamalar inson salomatligi uchun foydalidir. Ular havoni yaxshi o'tkazadi, shimadi, oson yuviladi

va dazmollanadi, allergiya qo'zg'atmaydi. Shuning uchun paxtadan tayyorlangan kiyim-kechaklarga dunyo bo'yicha talab katta. O'zbekiston bugungi kunda paxta yetishtirish va uni chet ellarga

sotish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Har yili mirishkor paxtakorlarimiz 4 million tonnadan ortiq hosil

kilogramm urug' ishlab chiqariladi. 340 kilogramm toladan esa to'quvchilar 3500 metr gazmol tayyorlaydilar. 500 kilogramm chigitdan 112


kilogramm yog', 10 kilogramm sovun, 270 kilogramm kunjut, 170 kilogramm shulxa va 8 kilogramm chit ishlab chiqariladi.

G'ozadan sellyuza ishlab chiqarishda, preslangan qog'oz va karton tayyorlashda xom-ashyo

hisoblanadi. Undan qurilish materiali sifatida ham foydalaniladi. G'oz'a barglaridan eng qimmatli limon va olma kislotalari olinadi. Paxta chanog'idan dori-darmon ishlab chiqarishda

zarur bo'lgan xom-ashyo ajratib olinadi. G'oz'a gullaganda paxtazorlar ustida asalarilar g'uvullab uchadi. Shirin, sap-sariq g'oz'a asali o'zining yoqimli hidi bilan ajralib turadi. G'oz'a o'simligining biron qismi yo'qki, u foydali bo'lmasin. Paxtasidan bargigacha kerakli. Bu ajoyib, g'aroyib o'simlik onavatanimizda yetishtirilishi bizning baxtimizdir. Kelajakda paxtaning yanada serhosil navlarini yaratish, undan olinadigan mahsulotlar turini ko'paytirish siz bolajonlarga bog'liq. Balki siz qizil, sariq, pushti, ko'krangli paxta hosili beradigan navlarni yaratarsiz. Yoki o'lkamizning qish sovug'iga chidamli, yigirma-o'ttiz yil yuqori hosil beradigan paxta daraxtini o'stirarsiz. Buning uchun siz a'lo baholarga o'qishingiz, izlanishingiz kerak bo'ladi. Intilganga toleyor, deydi xalqimiz.

(Tamom.)



## ADASHGAN MAKTUB

Sinfimizda Erkin degan yuvvoshgina bola bor edi. U birovni ko'nglini og'ritmas, faqat o'qish bilan ovora bo'lardi. Sinfimizdagi «sher» o'g'il bolalar esa, uni mazax qilishar, gohida sumkasini berkitib, ustidan kulishardi. Erkin bo'sh-bayov bola bo'lgani bilan, hamma fanlardan a'lo baholarga o'qirdi. Ba'zan biz qizlar ham undan nazorat ishlarini, insholarni ko'chirib turardik. Erkin biror marta birovdan narsa qizg'onganini, yoki birov bilan urushib qolganini ham eslolmayman. Bir kuni u sinfimizda navbatchi

edi. Tanaffusda hammamimiz ko'chaga chiqib ketdik. Tanaffusdan qaytib, hamma qatori darsligimni olib, tayyorlanib o'tirsam, kitobimni ichidan buklangan qog'oz chiqdi. Men uni olib o'qiy boshladim. Shu payt tepamga o'qituvchimiz kelib, xatni ularga berishimni, aks holda oyimga aytishlarini aytdilar. Men sinfdoshlarimdan uyalib, xatni ustozimizning qo'llariga tutqazdim. Ular esa varaqni ochib, hammaga maktubni o'qib bera boshladilar. Ulardan iltimos qilsam ham, quloq solmadilar. Shu payt Erkin shaxd bilan turib, sinfdan chiqib ketdi. Bu ham etmagandek, sinf rahbarimiz, haligi

Katta ustozimiz Erkin ikkimizni direktor xonasiga olib kirishdi, darrov otanalarimizni ham chaqirtirib, bizni «tergab» qo'yish kerakligini uqtirishdi. Hayotimning eng xunuk davri o'sha payt edi. Na uyda, va na maktabda ustozlarimdan tinchlik bo'lmasdi. Shundan so'ng oyim meni har qadamimini tergaydigan, har bir qilayotgan ishimdan kamchilik topib, maktub yozishgandan ko'ra, ish o'rganishim kerakligini aytib, uzib olardilar. Meni maktabga ham borgim kelmay qoldi. O'qishni istamasdim. Uydan ham uzozqlarga ketib qolgim kelardi. Erkinga kelsak, u ham

mendan kam emasdi. Uni ota-onasi boshqa maktabga o'tkazib yuborishdi. Mening esa maktabga borishim bir azob bo'lsa, uyga boirishim ming azob bo'layotibdi. Aziz tengdoshlar, men nima qilay, maslahat bering.

**Gulnoza TURSUNOVA, O'rta Chirchiq tumani, To'y-tepa qishlog'idan.**

### ONAJONIM

Onajonim, mehribonim,  
Sizsiz mening quyoshim.  
Siz tufayli olam ko'rdim,  
Qoya kabi bardoshim.  
Onajonim, mehribonim,  
Sizsiz suyangan tog'im.  
Poyingizga boshim egay,  
Misti gullagan bog'im.  
**Bahodir SHERMATOV, Abdulla Do'smatov nomli 81-maktabning 7-«A»sinf o'quvchisi.**

### OPPOQ QOR

Dalalarda yog'moqda,  
Oppoq, mayin qor.  
Shoshilishar bolalar,  
Qishning za'fqi bor.  
Qorbobolar yasalar,  
Kimlar birinchi.  
Qorqiz ham tayyor bo'ldi,  
Kelib ko'ring-chi.

Qorbo'ron zavqli o'yin,  
Hammasi bunda.  
Erib kelma oppoq qor,  
Sen yana tunda.

### MUALLIM

Harf o'rgatib har kun bizga,  
Zavqlanasiz saboq berib,  
So'zlaringiz bolday shirin,  
O'rganamiz ma'no terib.

Yetaklaysiz to'g'ri yo'lga,  
Go'yo farzand bo'ldik Sizga.  
Ona kabi mehribonsiz,  
Parvonasiz doim bizga.

**Gulruh AMIROVA, Ishtixon tumanidagi 8-maktabning 7-sinf o'quvchisi.**



«Ustozni oftobga qiyoslashadi. Nazarimda kamtarin kasbimizga berilgan bu oliy bahoga munosib bo'lish juda qiyin. Sababi, quyosh ilk saharda jilmayib shu'la sochadi, choshgohdan boshlab kuchli qizdira boshlaydi. Demak, har bir o'quvchining maktab ostonasiga kirib kelishi muallim uchun sahar, dars davomida kuchli bilimga ega bo'lishi esa choshgohning boshlanishidir. Kunduzning qanday yakunlanishi o'qituvchining o'quvchiga bergan sabog'i-yu, o'quvchining olgan bilimiga bog'liq. Har bir dars kuni biz uchun katta bir imtihondir», - deydi Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi 66-umumta'lim maktabi rahbari, 1-toifali o'qituvchi Matluba opa **FAYZIYEVA**.

**-Bolajonlarga 27 yildan buyon saboq berarkansiz. Oddiy o'qituvchilikdan rahbarlik lavozimigacha ko'tarilishning o'zi bo'lmagandir?**



-Yoshligimdan o'qituvchilik kasbiga ixlosim baland edi. Har sohaning o'ziga xos qiyinchiliklari bo'ladi. Lekin ana shu qiyinchiliklarni yengib o'tganniki hisob ekan. O'z tajribamdan kelib chiqib, kishi rahbarlik lavozimida ishlash uchun yetarli malakaga, katta tajribaga ega bo'lsagina, qo'l ostidagilarni ortidan ergashtira oladi, degan xulosaga keldim. Maktabimizda 498 o'quvchi ta'lim oladi. Ularga 40 nafardan ziyod

malakali o'qituvchilar saboq bermoqda. Ta'lim berishning yangicha usullarini joriy qilish, darslarni mazmunli, qiziqarli, munozarali o'tishga keng o'rin berilgan. O'quvchilarda erkin fikrlash qobiliyatini o'stirishda o'qituvchining noan'anaviy dars usullaridan foydalanish ayni muddaodir. O'qitishning «Aqliy hujum», «Bahs-munozara», «Zanjir mashqi», «Ijodiy ish», «Intervyu», «Intilish», «Muzyorar», «Suratli diktant» kabi noan'anaviy usullaridan foydalanayotganimiz o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, D.Nazarova, G.Xudoyorova, G.Jo'rayeva, X.Xolmo'minova singari mohir pedagoglarimizning berayotgan saboqlaridan bolajonlar ham, ularning ota-onalari ham mamnun. O'quvchilarning olgan bilimlari reyting tizimida baholanib, umumiy samaradorlik 70-75 foizni tashkil etmoqda. Ular fan olimpiadalarida qatnashib, faxrli o'rinlarga ega bo'ldilar. Jamoamiz ta'lim-tarbiyani takomillashtirish bo'yicha quyidagi mavzularda qator ijobiy ishlarni

yo'lga qo'ygan. Dars berishning zamonaviy usullaridan foydalanib, ta'lim samaradorligini oshirish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularga milliy an'analar asosida axloqiy tarbiya berish shular jumlasidandir.

Maktabimizda mahalla bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. «Maktab, oila, mahalla» konsepsiyasiga

kutubxonada o'tkazishadi.

**-2005 yilgi bolalar nashrlariga obuna xususida ham to'xtalib o'tsangiz.**

-Ilm dargohimiz o'quvchilari barcha turdagi bolalar nashrlariga birinchilardan bo'lib obuna bo'lishgan. Ular orasida 80 foizdan ko'pini «Tong yulduzi» gazetasi tashkil qiladi. Ushbu nashrning qiziqarli

**Ibrat**

## OFTOBIMSIZ MUALLIM

asosan, bir necha dasturlar amalga oshirilmoqda. Mahalla faollari maktabimizda tez-tez bolajonlar bilan turli mavzularda suhbatlar uyushtirishadi. Har bola bir dunyo. Ertamizning egalarini vatanga munosib ruhda tarbiyalash bu bizning burchimizdir.

**-O'quvchilar darsliklar bilan to'liq ta'minlanganmi?**

-Ta'lim maskanimizda tahsil olayotgan o'quvchilarimizni har yili darsliklar bilan to'liq ta'minlashga intilamiz. Bu yil ham bolajonlarimizga 80-90 foiz ijara asosida darslik kitoblar ajratdik. Maktab kutubxonasida 3000 ga yaqin kitoblar bor. O'quvchilar bo'sh vaqtlarini ko'proq

ruknlari, turli tanlovlar o'tkazilishi, bahs-munozaraga chorlovchi maqolalari nafaqat o'quvchilarni, balki biz ustozlarni ham qiziqtirib qo'ygan. O'zim ham ushbu gazetani, sevib mutolaa qilaman.

**-Ba'zi maktablarda ta'mirlash ishlari katta muammo tug'diradi...**

-Ta'lim maskanimizda bunday muammolar yo'q. Sababi, maktabimizning 10000 m<sup>2</sup> bog'i va 938 m<sup>2</sup> yer maydoni bor. Bu har yili ta'mirlash va boshqa ishlarimiz uchun daromad manbaidir. Muhtasham bog'imiz mo'l hosil berish bilan birgalikda jannatmakon go'shani eslatadi. Bu yerda o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham miriqib hordiq chiqarishadi.

*Sog'lom muhit hukmron bo'lgan maktab jamoasi bilan xayrlasharkanmiz, ertamizning munosib vorislarini tarbiyalashdek ulkan ishlarida zafarlar, sog'lik-omonlik tilab qolamiz.*

**Jamila ERDONOVA**  
suhbatlashdi.



**-Katta bo'lsam, a'lochi hofiz bo'laman deysizmi, shunagasi ham bo'larkanmi?**

Albatta bo'ladi. Xalqimizga manzur bo'ladigan ma'noli qo'shiqlarni ijro etib, ko'plab

olqish olayotgan san'atkorlar a'lochi-da. Qo'llarini bigiz

qilib, yer tepinib, tinmay sakrab kuylayotgan xonandalarni yoqirmayman. Odob bilan, mumtoz, milliy qo'shiqlarimizni maromiga yetkazib kuylayotgan hofizlarni tomoshabinlar dildan hurmat qilishadi. Bunga o'zim guvoh bo'lganman.

**-Pianino bo'limida tahsil olar ekansiz, bu yerda qo'shiq aytish sirlarini ham o'rganasizlarmi?**

-Musiqqa maktabimizda barcha fanlar qiziqarli o'tiladi. Ustozimiz Ra'no Yo'ldosheva bizga qo'shiq aytish sirlarini qo'nt bilan

*«Farzandingizni kuyga, qo'shiqqa oshino eting. Zero, bunday qalb egasi muloyimlikka, odob-axloqqa moyil bo'ladi, deydi donolarimiz. Darhaqiqat, shunday. Mening sevimli san'atkorim marhum Oxunjon Madaliyev. Unga o'xshab kuylasam deyman. Qo'shiqlarida bir olam ma'no bor, yurakdan kuylardi. Katta bo'lganimda albatta hofiz bo'laman», deya ta'kidlaydi tengdoshingiz Glier nomli musiqa maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi Xasanjon Qodirov.*

## HASAN KUYLASA, HUSAN HAM KUYLAYDI

o'rgatadilar. Shu paytgacha bir qancha qo'shiqlarni o'rganib oldim. «Oq bulut», «Men g'unchaman», «Yurt madhi», «Sarguzashtlar oroli», «Asraylik» kabi qo'shiqlarni bemalol kuylayapman.

**-Odatda egizaklarning fe'l-atvori, o'zini tutishi juda o'xshash bo'ladi. O'zaro hamjihatlikda doimo birga yurishadi. Husan ham shunday bo'lsa kerak-a?**

-Yo'q, Husanning ham ajoyib iste'dodi bor. Yaxshigina qo'shiq kuylaydi. Birgalikda musiqa maktabiga o'qishga kirganmiz. U ham san'atkor bo'lmoqchi. Hamisha bir-

birimizga yordam beramiz, kamchiligimizni



to'g'rilashga intilamiz. **-Bo'sh vaqtingizda nimalar bilan shug'ullanasiz?**


-O'qishdan bo'sh vaqtimizda do'stlarim bilan birgalikda Shayxontohur tumanidagi o'quvchilar saroyi qoshida tashkil etilgan «Kamalak» dastasiga qatnaymiz. Bu erda ustozimiz Nargiza Mirzayeva



oxirgi bosqichida esa «Men g'unchaman» qo'shig'ini ijro etib, III-o'rinni olishga muvaffaq bo'ldik. Erishgan barcha yutuqlarimizda ustozlarimizning xizmati beqiyosdir. Baxtli zamonda yashayotganimdan, Mustaqilligimiz tufayli yayrab bilim olayotganimizdan faxrlanib, yanada ko'proq qo'shiqlar kuylasam deyman.

*Bulbul kabi chamanzorda xonish qilayotgan Xasanjon va uning san'atkor do'stlariga ovozingiz yanada balandroq yangrasin, degimiz keladi.*

**Nuriddin HAYDAROV**  
suhbatlashdi.



Onalar yozadi

## O'ZBEKISTON

Xayrli tong olar quchoqlarida,  
Sumalak qaynaydi o'choqlarida,  
Butbullar sayraydi gul bog'laringda,  
Hayratning timsoli O'zbekistonim.

Mard-u maydonlaring har ishga qodir,  
Botirlar elim deb ahdigga sodiq,  
Peshonangga bitgan sarboning odil,  
Finchlikning qo'rg'oni O'zbekistonim.

Yomon ko'zdan asra o'zing Oллоhim,  
Falpingan Vatanim-Makkatullohim,  
O'zing qo'lla Tangrim, yurtim-panohim,  
Jannatning timsoli O'zbekistonim.

Zamira SAFAROVA.

## QIZLARINGA

Men intilgan seyr bulog'i,  
Bolajonim, sen o'zing.  
Dunyolarga alishmasman,  
Munchoqdek chaqnoq ko'zing.

Sen intilgan samo olis,  
Olloh nazar aylasin.  
Ahmad, Gugush nolasini  
Yuragingga joylasin.

Xudo bergan xazinamsan,  
Xazinamsan tenggi yo'q.  
Sening bilan faxr etgum,  
Sening bilan ko'nglim to'q.

G'unchaga roz aylar bulbul,  
Ovozingni sehri-la.  
Ko'zmunchoqlar taqay bolam,  
Yaxshi niyat, mehr-la.

## IKKI DO'ST

(Hikoya)

Jamshid va Olim qalin do'st edilar. Ular birga maktabga borishar, birga dars qilishar, doim birga o'ynashardi.

Bir kun Jamshid Kamolga: -Uyingdan pul olib chiqsang, saqich olardik,-deb qoldi.

-Pulni qayerdan olaman, oyim ertalab tushlik uchun bergan pulni maktabdayoq sarflab bo'lganman-ku?-dedi Kamol.

-Oyingning sumkasidan olaver, baribir bilmaydilar,-dedi Jamshid. -Har kuni ozginadan olsang, sezilmaydi.

Kamol o'ylab o'tirmasdan, o'rtog'i aytganidek qilibdi. Endi ular har kuni Kamolning

oyisi ishdan qaytishini orziqib kutishar, keyin Kamol o'zi biladigan joydan pul olib chiqar edi. Ikki o'rtog' har kuni saqich, muzqaymoq bilan o'zlarini siylay boshladilar.

Oradan ancha kunlar o'tgach, Kamolning oyisi bu siring tagiga yetib qoldi. Oyisi Kamolga qilayotgan ishini to'g'ri emasligini, uning so'ramay pul olishi o'g'irlik deb atalishini tushuntirdi. Shundagina Kamol garchi oyisining hamyonida ko'p pul tursa-da, bu pullarning o'z o'rni borligini va ular oyisi, dadasi, akasi hamda singilchasining rizqi ekanligini tushunib yetdi. U oyisidan kechirim so'radi va shu kundan boshlab o'rtog'i Jamshid bilan o'ynamay qo'ydi. Chunki u

Jamshid o'zini o'g'irlik deb ataluvchi xunuk va nopok ishga o'rgatayotganini anglagan edi. Kamol o'ylamay qilib qo'ygan ishdan juda pushaymon bo'ldi.



Bolalar, ehtiyot bo'ling, siz ham Kamolning ahvoliga tushib qolmang.

Xurshid TOJIBOYEV.

## TEST

- «Sambo» so'zining ma'nosi.  
A) Qurol bilan o'zini himoya qilish;  
B) Qurolsiz o'zini-o'zi himoya qilish;  
V) Oyoq bilan o'zini himoya qilish.
  - Boks necha turga bo'linadi?  
A) 2 turga: Havaskor va professional; B) 3 turga: Oliy, professional, havaskor; V) 4 turga: O'rta, oliy, professional, havaskor.
  - Boks birinchi bo'lib qaysi davlatda paydo bo'lgan?  
A) Amerika; B) Xitoy; V) Angliya.
  - 2004 yil shaxmat bo'yicha Jahon chempionini aniqlang.  
A) Saidali Yo'ldoshev; B) Rustam Qosimjonov; V) Ruslan Chagayev.
  - Yurtimizda eng qadimgi milliy sport o'yinini aniqlang.  
A) Futbol; B) Kurash; V) Tennis.
- Tuzuvchi: Nasiba MUTALOVA,  
S.Rahimov nomli Akademik litseyning 207-guruh talabasi.

Ona yuring - olin bechigini  
TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:  
Umida  
ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:  
Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
O'ktam OHUNOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
N: 022 raqam bilan  
2003 yil 11 dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir  
«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi.  
Gazeta  
«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa  
ijodiy uyi  
kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va  
chop etildi.  
Gazeta haftaning dushanba  
kuni chiqadi.  
Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 11167  
Buyurtma N: J 807



Dizayn va sahifalovchi:  
Otabek  
ESHCHANOV.  
Navbatchi:  
Ozoda  
TURSUNBOYEVA.

Rassom:  
Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38  
144-38-10  
144-21-75

Tel/ faks:  
(99871) 144-24-45



ENIGA:

3. Qizlar - ismi.
5. Samo.
7. Kuch.
9. Gul turi.
10. Ota (shevada).
12. Mehnat quroli.
13. Noma.
16. Uy qismi.
18. Pishmagan.
20. Ma.
21. Nota.

BO'YIGA:

2. So'z boshi.
4. Surat.
6. Uzoq.
8. Terak, tol.
11. Olmosh.
14. Xom-ashyo.
15. Sekin.
17. Olmosh.
19. Dukkakli o'simlik.

Sanobar KUCHIMOVA,  
Navoiy shahridagi  
11-maktabning  
7-«V» sinf o'quvchisi.